

Mahsulot sifati korxonada rivojlanishining muhim omili. Sifat darajasi boshqarishning xorij tajribasi

Maxliyo Zarifjon qizi Xolmirzayeva
O'zbekiston Milliy universiteti

Annotatsiya: Sifatli mahsulot ehtiyojlarni to'laqonli qondirish uchun xizmat qiluvchi yuqori naflilikka ega bo'lganligi bois doimo o'z xaridorlariga egadir. Sifatli mahsulotga bo'lgan talab qondirilganda u dunyo bozorlarida o'z o'rnini topa oladi. Bu korxonaning ishlab chiqarish samaradorligining yuksalishi uchun imkon beradi.

Kalit so'zlar: sifatli mahsulot, mahsulot sifatini boshqarish, xalqaro standartlar, bozor iqtisodiyoti, sifat ko'rsatkichlari, samaradorlik, malakali kadrlar, raqobat, talab va taklif, iste'molchi.

Product quality is an important factor in enterprise development. Foreign experience of quality management

Makhliyo Zarifjon kizi Kholmirzayeva
National University of Uzbekistan

Abstract: A quality product always has its customers due to its high performance that serves to fully satisfy needs. When the demand for a quality product is met, it can find its place in the world markets. This allows for an increase in the production efficiency of the enterprise.

Keywords: quality product, product quality management, international standards, market economy, quality indicators, efficiency, qualified personnel, competition, supply and demand, consumer.

Zamonaviy bozor iqtisodiyoti sharoitida mahsulotning nafliligi, uning xaridor iste'molini qondira olishi muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois bugungi kundagi bozor iqtisodiyoti ishlab chiqariladigan mahsulot va ko'rsatiladigan xizmat uchun qat'iy sifat talablarini qo'yadi. Shuningdek, mahsulot sifati uning raqobatbardoshlik darajasi yuqori bo'lishi uchun ham xizmat qiluvchi asosiy ko'rsatkich bo'lib hisoblanadi.

Mahsulot sifatini oshirish korxonaning bozordagi mavqeyini oshirish bilan bir qatorda resurslarni tejash, jamiyat a'zolarining ijtimoiy, shaxsiy ehtiyojlarini to'laroq qondirish uchun ham xizmat qiladi. Jamiyatda sifat muammosi hal qilinmas ekan, ijtimoiy ishlab chiqarish va aholining tovarlarga bo'lgan ehtiyojlarini qondirib bo'lmaydi.

Mahsulot sifati - bu mahsulotning har tomondan foydalanishga mukammal ekanligini belgilovchi xususiyatlar bo'lib hisoblanadi.

Mahsulot sifati - bu shu mahsulotdan ma'lum muddat foydalanish uchun uning yaroqlilik darajasi, mahsulotning xalq xo'jaligi ehtiyojlarini, iste'molchilarning talab va didlarini qondirish qobiliyatidir¹.

Ishlab chiqarilayotgan mahsulot sifati ishlab chiqarishni tashkil etuvchi elementlar - ishlab chiqarish vositalari, ishlab chiqarish buyumlari va ishchi kuchi kabi ishlab chiqarish omillaridan samarali foydalanishga bevosita bog'liq. Shu tufayli korxonada ishchi-xodimlarning malaka darajasini oshirish, ularni moddiy va ma'naviy rag'batlantirish tizimini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Har qanday korxonaning asosiy maqsadi mahsulot sifatini doimiy yaxshilab borishga intilish bo'lib hisoblanadi. Bu vazifa ijobiy hal bo'lishi uchun sifat tizimi boshqaruviga alohida e'tibor qaratish maqsadga muvofiq. Korxonada rahbariyati ishlab chiqarish jarayonlarining tizimli ketma-ketligini nazorat qilib turish mahsulot sifatini oshirish bir qatorda ishlab chiqarish natijaviyligiga ham o'z ijobiy ta'sirini ko'rsatadi.

Jahonning yetakchi mamlakatlaridan biri bo'lib hisoblangan AQSh tajribasi shuni ko'rsatadiki, mahsulot sifatini samarali boshqarishga, avvalo, sifat tizimini rejalashtirish bilan erishiladi. Sifat tizimini rejalashtirish va uni bajarish jarayoni xavf va imkoniyatlar darajasini aniqlash, jarayonning hisobot natijalariga muvofiqligini tekshirish-monitoringni amalga oshirish, nuqsonlarni aniqlash va zaruriy chora-tadbirlar ko'rish orqali mahsulot sifatini oshib borish imkoniyatini beradi. Sifatni boshqarishning zamonaviy konsepsiyasi XX asr ikkinchi yarmida E.Deming PDCA sifat tizimini doimiy takomillashtirish siklida, "Sifat, unumdorlik va raqobatbardoshlik" va "Inqirozdan chiqish" kabi kitoblarida o'z aksini topgan. Bu monografiyalarda "14 qoida" nomi bilan tanilgan Demingning falsafasi o'rin olgan bo'lib, ular umumiy sifat (Total Quality)ning asosini tashkil qilgan².

Mahsulot sifati masalalarini hal qilishda Yevropa mamlakatlarining ham alohida yondashuvi mavjud bo'lib, u sifatni boshqarish va tasdiqlash bilan bog'liq ishlarning huquqiy asosi mavjudligi, korxonada rahbariyatining sifatni boshqarish tizimiga qiziqishini orttirish, mahsulot sifatini oshirishda ham jamoa ishtirokini ta'minlash va istiqbolli strategic dasturlarni qabul qilish kabi xususiyatlarni o'z ichiga oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Muminov N.G. Industrial iqtisodiyot: Darslik. I qism / T.: "Tafakkur-bo'stoni" nashriyoti, 2020. 261 b.

¹ ISO9000. Xalqaro standartlar. Mahsulot sifatini boshqarish. ISO9000 seriyasidagi standartlar. 1-2 tom-Toshkent, Mehnat, 2019

² Sabirjanova D.K. "Menejment" T. TMI, 2017 y.

2. Xalqaro standartlar. Mahsulot sifatini boshqarish. ISO9000 seriyasidagi standartlar. 1-2 tom–Toshkent, Mehnat, 2019
3. Сабирджанова Д.К. “Менеджмент” Т.ТМИ, 2017 й.